



Toshkent Farmasevtika Instituti

„Farmatsiya yo'nalishi“



”

“

kafedrası

“Tayyor dori turlari texnologiyasi“ fanidan

Mustaqil ish

Tayyorladi: _____

Qabul qildi: _____

Toshkent 2025

AKKADALIY VIL
2025

Mavzu: Farmatsevtik nomutanosiblik

Reja

- 1. Farmatsevtik nomutanosiblik haqida tushuncha**
- 2. Nomutanosiblikning klassifikatsiyasi (tasniflanishi)**
- 3. Fizik-kimyoviy nomutanosiblikning tavsifi va kelib chiqish sabablari**
- 4. Kimyoviy nomutanosiblikning tavsifi. Kimyoviy nomutanosiblikning tashqi omillarning ta'siri**
- 5. Farmakologik nomutanosibliklar**
- 6. Manbalar**

1. Farmatsevtik nomutanosiblik haqida tushuncha

Nomutanosibliklar - bu retseptda keltirilgan dorivor moddalar bir biriga mos kelishidan qat'iy nazar, vrach tomonidan ko'zda tutilmagan fizik-kimyoviy yoki kimyoviy jarayonlar natijasida dori moddalari yoki yordamchi moddalarni o'zaro ta'sir etishi natijasida, saqlanish yoki dorini qabul qilish jarayonida ko'zda tutilmagan noxush holatlarni kelib chiqishiga aytiladi.

Ushbu muammoning yuridik jihatlari kerakli me'yoriy hujjat va buyruqlarda keltirilgan.

Jumladan, farmatsevt dorixatda keltirilgan moddalarning bir biriga mos kelishini tekshirib olishi shart ekanligi keltirilgan.

Vrach tomonidan retseptda yozilgan va keltirilgan o'zaro nomutanosib bo'lgan dorivor moddalar bilan dori shaklini tayyorlash qat'iyan man etiladi va «retsept kuchga emas» degan pechat bilan tasdiqlanadi hamda maxsus jurnalda qayd etiladi

Farmatsevt va provizorlarga retseptni ichida keltirilgan narkotik, A va B ro'yxatiga kiruvchi moddalarni alohida berish qat'iyan man etiladi. Bu faqatgina qo'shimcha retsept bo'lsagina amal qilinadi.



2. Nomutanosiblikning klassifikatsiyasi (tasniflanishi)

Farmatsevt va shifokor nafaqat dorivor moddalarning terapevtik ta'sirining xossalari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi kerak, balki ularning fizik-kimyoviy xossalarini ham yaxshi bilishlari kerak. Bularga:

- eruvchanlik;
- pH muhit;
- uchuvchanligi;
- Erish harorati;
- O'zar ta'sir qilmoqlik imkoniyati;
- Reaksiyalik qobiliyati.

Bundan tashqari, «Aniq» va «o'xshash bo'lgan» nomutanosibliklar mavjud.

3. Fizik-kimyoviy nomutanosiblikning tavsifi va kelib chiqish sabablari

Fizikaviy nomutanosibliklar – bu dori shaklini ichiga kiradigan dorivor moddalarini faqat fizikaviy holatidagi o‘zgarishlariga aytiladi.



Fizikaviy nomutanosibliklarining sabablari:

- Moddani erimasligi yoki erish sharoitini yomonlashishi;
- Dori moddalarining aralashmasligi
- Qattiq moddalarni nam tortib qolishi;
- Qattiq moddalarni eritmaga o'tib ketishi (evtektika);
- YUMB va kolloid eritmalarni koagulitsiyaga uchrashi;
- Emulsiyalarni qavatlariga ajralishi;
- Ta'sir etuvchi moddalarni adsorbsiyaga uchrashi.

4. Kimyoviy nomutanosiblikning tavsifi. Kimyoviy nomutanosiblik-ning tashqi omillarning ta'siri

Kimyoviy nomutanosibliklar deb, dori moddalari o'rtasida ko'zda tutilmagan kimyoviy reaksiyalar natijasida dori shaklini davolovchi ta'sirini to'liq yo'qolishiga va zaharli ta'sirini oshirishiga olib kelishiga aytiladi.



5. Farmakologik nomutanosibliklar

Farmakologik nomutanosibliklar bu – dorivor moddalarning o‘zaro aralashish natijasidagi bir vaqtning o‘zida dori moddasini davolash effektini to‘liq yo‘q qiladigan yoki uning nojo‘ya ta‘sirini kuchaytiradigan holatga aytiladi Bu degani dori moddasida ro‘y beradigan o‘zgarish emas, aksincha, qabul qilinganda organizmga ta‘siri tushunilishi kerak.

Misol tariqasida kombinirlangan antibiotiklar bilan davolash:

- Streptomitsin neomitsin bilan qo‘llanilganda → zaxarlik ta‘siri oshib, eshitish apparatidagi nervni izdan chiqaradi, ya‘ni karlikka olib keladi;
- Streptomitsin tetratsiklin bilan → jigarda og‘ir patologik jarayonlar boshlanishiga sabab bo‘ladi;
- Streptomitsin penitsillin bilan → miokardga zaxarli ta‘siri kuchayib, uning qisqarishini pasayishiga olib keladi.

6. Manbalar

1. Toshkent farmatsevtika instituti, Dori turlari texnologiyasi kafedrası , Biofarmatsiya fanidan ma'ruza matni, Toshkent – 2020
2. <https://medall.uz/dori-darmonlarni-kop-ishlatishning-tanaga-tasiri/>
3. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/farmacevtika_tarmogini_rivojlantirish_agentligi_tekshirishlarda_ishtirok_etadi
4. <https://abt.uz/blog/farmatsevtika-texnik-universiteti-tashkil-etildi>
5. <https://zarnews.uz/uz/post/shifokorlarning-farmacevtika-tashkilotlari-bilan-hamkorligiga-chek-qoyiladi>
6. <https://uzpharmagency.uz/oz/news/mahsus-dorihonalarda-tajerlab-berilgan-suju-preparatlar-shuningdek-uj-sharoitida-tajerlanadigan-dorivor-damlama-va-ajnatmalarni-ancha-muddatgacha-salash-mumkin>
7. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/dorihonalar_dori_vositalarini_qanday_tayerlaydilar



E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT

